

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA "ONA TILI" VA " O'QISH" DARSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA RIVOJLANGAN XORIJIY DAVLATLAR  
TAJIRIBASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Shodiyeva Hulkaroy Uchqun qizi**

*Navoiy davlat universiteti 1- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda boshqa sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasini ham jahon standartlariga mos ravishda takomillashtirish ehtiyoji vujudga kelganligini inobatga olgan holda ilmiz izlanildi. Xususan, Boshlang'ich sinflarda "Ona tili" va "O'qish" fanlarini yanada mazmunli tashkil etishda rivojlangan xorijiy davlatlar, xususan, Finlandiya, Janubiy Koreya, Kanada va Yaponiyada qo'llanilayotgan innovatsion metodlar o'rganib chiqadigan bo'lsak, mazkur davlatlarning boshlang'ich ta'limda bolalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tajribalari tahlil qilindi.*

**Kalit so'zlar:** *ona tili, o'qish darslari, xorijiy tajriba, Finlandiya modeli, Janubiy Koreya ta'limi, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy yondashuvlar.*

Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish fanlari o'quvchilarning til o'rganish, lug'at boyligini oshirish va to'g'ri nutq shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va yozish ko'nikmalari yetarlicha shakllanmaganligi va dars jarayonida interfaol usullarga ehtiyoj sezilishi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ona tili va o'qish fanlarini o'qitishning eng muvaffaqiyatli usullari o'rganilib, O'zbekiston ta'lim tizimi uchun foydali takliflar berildi.

O'zbekistonda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Ona tili" va "O'qish" darslarida berilgan matnlar ko'pincha o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelmaydi. Bu, ayniqsa, 2- va 3-sinf o'quvchilari uchun o'quv dasturida ko'zga tashlanadi. Masalan, 2-sinf "O'qish" kitobidagi ayrim matnlar mavhum bo'lib, bolalarda ularni tushunish qobiliyatini rivojlantirish uchun qo'shimcha metodlarga ehtiyoj seziladi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy davlatlarning tajribasidan o'rganish va O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali muammolarga yechim topish mumkin.

Rivojlangan davlatlar tajribasini ko'rib chiqsak:

1. Finlandiya tajribasi: Finlandiya boshlang'ich ta'limni tashkil qilishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga katta e'tibor qaratadi. Masalan, 1-sinfda bolalar haftasiga faqat ikki soat o'qish va yozishni o'rganadi, qolgan vaqt esa hikoya qilish, suhbat qurish va o'z fikrlarini erkin ifodalashga bag'ishlanadi. Bu jarayonda o'qituvchi faqat yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi va bolalarga qiziqarli kitoblar taqdim etadi. Finlandiyada "tanlov asosidagi o'qish" usuli keng qo'llanilib,

bunda o'quvchilar o'zlari tanlagan matnlarni o'qiydilar, bu esa ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Finlandiya ta'lim tizimida 7 tamoyil asos qilib olinadi. Bular: tenglik, bepullik, individuallik, amaliyot, ishonch, istak, mustaqillik. Bir fanning boshqalaridan chuqurroq o'rgatilishi maqsadga muvofiq emas. U yerda, masalan, matematika san'atdan muhimroq hisoblanmaydi. Aksincha, qobiliyatli bolalar uchun alohida sinflar tashkil qilinishiga yagona sabab ularning tasviriy san'at, musiqa va sportga moyilligi bo'lishi mumkin.<sup>69</sup>

2. Janubiy Koreya tajribasi: Janubiy Koreyada boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun o'qish va yozish mashqlari interaktiv usullar orqali o'rgatiladi. Masalan, 3-sinf o'quvchilariga turli qisqa hikoyalar berilib, ular matn mazmunini guruh bo'lib muhokama qiladilar va o'z fikrlarini bildiradilar. Janubiy Koreyada "rasmlar bilan o'qish" texnikasi keng qo'llanilib, bolalarga rasm asosida hikoya tuzish va hikoyani o'qish imkoniyati beriladi. Bu metod ularning tasavvurlarini boyitadi va o'z ifodalari ochiq-oydin bildirishlariga imkon yaratadi.

3. Kanada tajribasi: Kanadada boshlang'ich ta'limda tanqidiy o'qish va munozara metodlariga katta e'tibor qaratiladi. Har bir darsda o'quvchilarga matnlar beriladi va ular mazmunni tahlil qilib, fikr-mulohazalarini bildiradilar. 2-sinf o'quvchilariga qisqa hikoyalar o'qitilib, har bir o'quvchi o'z fikrini erkin ifodalashga undaladi. Shuningdek, o'quvchilarga matnlardan olingan iboralardan foydalanib, o'z hikoyalari yaratish vazifalari beriladi.

4. Yaponiya tajribasi: Yaponiyada esa 1-sinf o'quvchilariga o'qish darslarida oddiy, ammo o'ziga xos hikoyalar tanlanadi. Bu hikoyalar bolalarni ham ma'noli, ham qiziqarli, tasviriy matnlarni o'qishga jalb qiladi. Yaponiyada "erkin fikrlash" mashqlari orqali o'quvchilar mustaqil ravishda hikoyalarni davom ettirish yoki ularga yangi qahramonlarni kiritish kabi ijodiy topshiriqlar bilan shug'ullanadilar.

O'zbekiston ta'lim tizimida boshlang'ich sinflarda "Ona tili" va "O'qish" darslarini takomillashtirishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish bo'yicha quyidagicha yechimlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi:


1. Tanqidiy o'qishni rivojlantirish: 3-sinf "Ona tili va o'qish savdixonligi" kitobidagi "Vatan"<sup>70</sup> hikoyasini o'qitish jarayonida, o'qituvchi o'quvchilarga hikoya mazmuni haqida savollar berishi va ularni mustaqil ravishda o'z nuqtai nazarini bildirishga undashi mumkin. Shuningdek, o'quvchilar hikoyadagi voqealarni o'zlari qayta hikoya qilish yoki yangi qahramonlarni qo'shish orqali ijodiy fikrlashga o'rgatiladi.


2. Interfaol usullardan foydalanish: O'zbekiston boshlang'ich sinflari uchun 2-sinf ona tili darslarida o'quvchilarni guruhlariga ajratib, har bir guruhga alohida topshiriqlar

<sup>69</sup> Kun.uz sayti "O'quvchi va o'qituvchi orzusi: Finlyandiya ta'lim tizimi" maqolasi

<sup>70</sup> Ona tili va o'qish savdixonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 10-b.

berish va ular orqali mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi. Misol uchun, har bir guruhga she'r yoki hikoya bo'yicha topshiriqlar berib, ularning fikrlarini baholash usuli yaxshi samara beradi.

 Rasmlar yordamida yangi so'zlar hosil qiling.



71

“Rasmlar yordamida yangi so'zlar hosil qiling” mashqi

Xuddi shunday topshiriqlar o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatadi. So'zlarni so'zlarga qo'shish va rasmlarda ifodalanganlarni tahlil qilish kabi topshiriqning vazifasi bo'lsa, o'quvchilarni nutqini o'stirish, dunyoqarashini o'stirish, fikrlashini kengaytirish, atrofdagi voqeliklarga munosabat bildirish maqsadidir.

3. Qiziqarli kitoblar bilan ta'minlash: Xorijiy tajribaga asoslangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keluvchi, qiziqarli kitoblarni tanlash va kitobxonlik kunlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Masalan, “Bo'ladigan bolalar” (Po'lat Mo'min), “Meshpolvon jangga otlandi” (Anvar Obidjon), “Oltin yurakli avtobola” (Anvar Obidjon) yoki “Quyonglar saltanati” (Xudoyberdi To'xtaboyev) kabi kitoblar orqali o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarini xorijiy davlatlar tajribasi asosida takomillashtirish orqali o'quvchilarning

<sup>71</sup> Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshqalar] - Toshkent. Respublika ta'lim markazi, 2021. 31-b.

mustaqil fikrlash, muloqot va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bu esa ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. 10-b.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshqalar] - Toshkent. Respublika ta'lim markazi, 2021. 31-b.
3. <https://kun.uz/news/2018/08/13/ukuvci-va-ukituvci-orzusi-finlandia-talim-tizimi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2018%2F08%2F13%2Fukuvci-va-ukituvci-orzusi-finlandia-talim-tizimi>